

## DAM OLIISH HUQUQINI XORIJIY MAMLAKATLARDA VA XALQARO-HUQUQIY HUJJATLARDA AKS ETISHI

**Tursunaliyeva Gulbahor**

Farg'ona yuridik texnikumi 32/23-guruh o'quvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15637177>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada dam olish huquqi xalqaro-huquqiy hujjatlarda aks etishi har tomonlama tahlil qilingan. Bunda chet el mamlakatlardagi dam olish huquqi ham bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Dam olish huquqi, Qo'shma Shtatlar, Xalqaro Mehnat Tashkilotining 47-sonli "Ish haftasini 40 soatgacha qisqartirish to'g'risida"gi 52-sonli Konvensiyasi, Xalqaro Mehnat Tashkilotining "Yillik haq to'lanadigan ta'tillar to'g'risida"gi Konvensiyasi, "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro Pakt.

### REFLECTION OF THE RIGHT TO LEAVE IN FOREIGN COUNTRIES AND INTERNATIONAL LEGAL DOCUMENTS

**Abstract.** This article provides a comprehensive analysis of the right to rest reflected in international legal documents. It also describes the right to rest in foreign countries.

**Keywords:** Right to rest, United States, International Labor Organization Convention No. 47 on the Reduction of the Working Week to 40 Hours, International Labor Organization Convention on Annual Holidays with Pay, International Covenant on Economic, Social and Cultural Rights.

### ОТРАЖЕНИЕ ПРАВА НА ВЫЕЗД В ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАНАХ И МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ДОКУМЕНТЫ

**Аннотация.** В статье дается комплексный анализ права на отдых, отраженного в международно-правовых документах. Описывается право на отдых в зарубежных странах.

**Ключевые слова:** Право на отдых, США, Конвенция Международной организации труда № 47 о сокращении рабочей недели до 40 часов, Конвенция Международной организации труда о ежегодных оплачиваемых отпусках, Международный пакт об экономических, социальных и культурных правах.

Dam olish vaqtini huquqiy tartibga solish ishdagi har xil turdagi tanaffuslarni tartibga solishni o'z ichiga oladi (smena ichidagi, kunlararo haftalik, bayramlar, ta'tillar. G'arb mamlakatlarida dam olish uchun yillik pullik ta'tilning davomiyligi turli toifadagi ishchilar uchun 1 haftadan 8 haftagacha farq qiladi. Bu mamlakat, sanoat, ishchilar yoki xizmatchilarga mansubligi, ish staji, ba'zi hollarda - yoshi va mehnat sharoitlariga bog'liq va ko'pchilik ishchilar uchun bu masala faqat jamoaviy shartnomalarda tartibga solinadi, boshqalarida (Italiya) ayrim toifadagi ishchilar (xususi korxonalar xodimlari, temir yo'lichilar, yoshlar, uy ishchilari) va asosiy ishchilar uchun ta'tillar to'g'risidagi qonunlar mavjud. Ishchilarning bir qismi, ta'tillari jamoaviy shartnomalarda belgilanadi, nihoyat, bir qator mamlakatlarda (Fransiya, Germaniya) ishchilarning asosiy qismi uchun ta'tillar maxsus qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> <https://studentopedia.ru/> Виды времени отдыха в зарубежных странах

Qo'shma Shtatlar ta'til muddatini tartibga soluvchi qonunga ega bo'lmagan yagona rivojlangan iqtisodiyotdir. Hammasi ish beruvchi va xodim o'rtasidagi kelishuvga bog'liq. Qo'shma Shtatlardagi ta'tilning davomiyligi ma'lum bir kompaniyada ishlagan vaqt, shuningdek, ish beruvchi tashkilotning maqomi va xodimning lavozimi bilan belgilanadi. Shunday qilib, tashkilotdagi ishning birinchi yilida ishchilar va xizmatchilar o'rtacha 9,6 kun dam oladi, ikkinchisida - 11,5 kun. Ta'til faqat besh yillik xizmatdan keyin 16,9 kungacha ko'tariladi.<sup>2</sup>

Dam olish huquqi fuqarolarning eng muhim iqtisodiy-ijtimoiy huquqlaridan bo'lib, unga doir qoidalar xalqaro-huquqiy hujjatlar bilan belgilab qo'yilgan. Jumladan, Xalqaro Mehnat Tashkilotining 47-sonli "Ish haftasini 40 soatgacha qisqartirish to'g'risida"gi, 52-sonli "Yillik haq to'lanadigan ta'tillar to'g'risida"gi Konvensiyalarida, eng umumiy va prinsipial qoidalar esa BMTning 1966-yil

19-dekabrda "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro Paktida nazarda tutilgan. Xalqaro Mehnat Tashkilotining 47-sonli "Ish haftasini 40 soatgacha qisqartirish to'g'risida"gi Konvensiyaning 1-moddasida aytilishicha, "Ushbu Konvensiyani ratifikatsiya qiladigan Xalqaro Mehnat Tashkilotining har bir a'zosi quyidagilarni ma'qullashini bildiradi:

a) qirq soatlik ish haftasi prinsipini va u shunday qo'llanilishi kerakki, natija mehnatkashlar turmush darajasining pasayishiga olib kelmashligi darkorligini;

b) shu maqsad himoyasi uchun maqbul hisoblanadigan chora-tadbirlar ko'rilishini yoki tadbirlarga yordam berishni; va shu prinsipni ish turlarining turli toifalariga nisbatan (Tashkilotning mazkur a'zosi tomonidan ratifikatsiya qilinishi mumkin bo'lgan) ayrim konvensiyalarning batafsil qoidalariga muvofiq qo'llash majburiyatini o'z zimmasiga oladi".<sup>3</sup>

Xalqaro Mehnat Tashkilotining 52-sonli "Yillik haq to'lanadigan ta'tillar to'g'risida"gi Konvensiyasining 2-moddasining birinchi bandida aytilishicha, "har bir shaxs, agar ushbu Konvensiya unga nisbatan qo'llanilsa, bir yil davomida uzluksiz mehnat qilganidan so'ng, kamida olti ish kuniga teng muddatli har yilgi haq to'lanadigan ta'tilga chiqish huquqiga ega bo'ladi".<sup>4</sup> BMTning 1966-yil 19-dekabrda "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro Paktida Paktning 7-moddasida aytilishicha, "ushbu Paktida ishtirok etuvchi davlatlar har bir kishining adolatli va qulay shart-sharoitga ega bo'lgan mehnat qilish huquqini, jumladan, quyidagilarni tan oladi:

a) barcha mehnatkashlarga kamida quyidagilarni ta'minlaydigan haq:

b) teng qiymatga ega mehnat uchun hech bir tafovutsiz adolatli ish haqi va teng daromad, ayni paytda, jumladan, ayollarga erkaklarnikidan kam bo'lmagan mehnat sharoitiga kafolat berilishi hamda teng mehnat uchun teng haq to'lanishi kerak;

s) mazkur Paktning qarorlariga muvofiq ular va ularning oilalari uchun qoniqarli bo'lgan turmush;

d) xavfsizlik va gigiyena talablariga javob beruvchi ish sharoiti;

i) mehnat staji va malaka asosidagina ishda tegishli yanada yuqoriroq mansablarga ko'tarilish uchun bir xil imkoniyat;

<sup>2</sup> <https://www.glavbukh.ru/> Сколько отдыхают сотрудники заграничней/ 20.05.2011

<sup>3</sup> <https://www.ilo.org/> C047 - Convention (n 47) des quarante heures, 1935

<sup>4</sup> <https://www.ilo.org/> C052 - Convention (n 52) sur les congés payés, 1936

f) dam olish, bo'sh vaqt imkoniyatining bo'lishi va oqilona cheklangan ish vaqti hamda haq to'lanadigan ta'til, shuningdek bayram kunlari uchun haq", deb qayd qilingan.<sup>5</sup>

Xulosa qilib aytganda, xorijda amaliyotda bo'lgan va xalqaro-huquqiy hujjatlarda belgilangan dam olish huquqi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib har bir mamlakatning huquqiy tizimidan kelib chiqadi.

#### REFERENCES

1. Y. Tursunov, M.A. Usmanova. Mehnat huquqi. Darslik. Toshkent. 2006. 134- bet.
2. <https://www.glavbux.ru/> Сколько отдыхают сотрудники за границей/ 20.05.2011
3. <https://studentopedia.ru/> Виды времени отдыха в зарубежных странах
4. <https://www.ilo.org/> C047 - Convention (n 47) des quarante heures, 1935
5. <https://www.ilo.org/> C052 - Convention (n 52) sur les congés payés, 1936
6. <https://www.ohchr.org/> Pacte international relatif aux droits économique, sociaux et culturels.

---

<sup>5</sup> <https://www.ohchr.org/> Pacte international relatif aux droits économique, sociaux et culturels.